

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Halima Ahmedova she'riyatining morfologik ya'ni ayrim yordamchi so'z turkumining
qo'llanilish xususiyati

Abdullayev Umidjon

NavDPI tayanch doktoranti

Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Ernazarova Manzura Saparboyevna

Ilmiy rahbar: f.f.d. (DSc) prof.

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Halima Ahmedova she'riyatida qo'llangan yordamchi so'z turkumlarining xususiyatlari o'r ganilgan. Ular orqali yuzaga chiqayotgan ma'nolar, yordamchi so'z turkumlarining qo'llanish o'rniqa ko'ra turlari tahlil etilgan. Barchamizga ma'lumki yordamchi so'z turkumlari mustaqil so'z turkumlariga yordamchi vazifani bajaradi. Yordamchi so'z turkumlarini yakka holda qo'llasak ma'no mazmun ifodalamaydi ammo ularsiz ham nutqimiz go'zal bo'lmaydi. Shoira Halima Ahmedovaning she'rlarida qo'llangan yordamchi so'z turkumlarining ma'nolari ifodalangan.

Kalit so'zlar: yordamchi so'z turkumlari, ko'makchi, yuklama, bog'lovchi, tautologiya, epifora, obrazlilik.

АННОТАЦИЯ В данной статье рассматриваются особенности вспомогательных групп слов, используемых в поэзии Халимы Ахмедовой. Анализируются проявляющиеся через них значения, виды вспомогательных групп слов по месту их употребления. Как мы все знаем, вспомогательные группы слов выполняют вспомогательную функцию по отношению к независимым группам слов. Если мы будем использовать одни вспомогательные группы слов, смысл не будет выражен, но без них наша речь не будет красивой. Выражены значения вспомогательных слов, используемых в стихах поэтессы Халимы Ахмедовой.

Ключевые слова: вспомогательные группы слов, помощник, нагрузка, связка, тавтология, эпифора, образность.

Abstract: This article examines the features of auxiliary word groups used in Halima Ahmedova's poetry. The meanings emerging through them, the types of auxiliary word groups according to their place of use are analyzed. As we all know, auxiliary word groups perform an auxiliary function to independent word groups. If we use auxiliary word groups alone, the meaning will not be expressed, but our speech will not be beautiful without them. The meanings of auxiliary words used in poetess Halima Akhmedova's poems are expressed.

Key words: auxiliary word groups, helper, loading, connecting, tautology, epiphora, imagery.

Halima Ahmedova 1960-yilda Buxoro (hozirgi Navoiy) viloyatining Qiziltepa tumanidagi Po'loti qishlog'ida tug'ilgan. ToshDU ning filologiya fakultetini tamomlagan (1983). Birinchi she'riy to'plami — «Ko'zimning tili» (1986). Shundan so'ng shoiraning «Tungi marvaridgullar» (1987), «Erk darichasi (1996), «Tiyramox» (2005) kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Xayol kechalari qismat bog‘ida,
Yolg‘izlikda adashgan manmu?
Olloh, kaftlaringda bir kuni
Maysa bo‘lib egilamanmu?

Yomg‘ir **kabi** yog‘ilsa jonim,
Qarog‘larim bo‘larmikin jom?
Tig‘ urilgan bag‘rim qoniga
Yuragini chayarmu oqshom?

Men nur bo‘lib o‘psam **jimgina**,
Dil shahrining ertaklarini,
Tillarida so‘zlashamanmu
Onam qabrin chechaklarini?

Qushlar ko‘zin qorachig‘ida,
Asir etib ko‘milgan manmu?
O, jahannam otashi, sandan
Qochib, sanga intilamanmu?

Ko‘z yosh **kabi** silqigan jonni
Ichkanida ichikkan diydor,
Dil qonidan man sarhush o‘lsam,
Bandangmanmu, ayt, Parvardigor?!

Xayol kechalari qismat bog‘ida,
Yolg‘izliqda adashgan manmu?..

Yordamchi so‘z turkumlari hech qanday so‘roqqa javob bo‘lmaydi, ma’lum bir gap bo‘lagi vazifasida kelmaydi. Ular faqat mustaqil so‘z turkumlariga yordam vazifasini bajaradi.

Tilshunosligimizda yordamchi so‘z turkumlari uchg‘a bo‘linadi, yani bog‘lovchi, ko‘makchi va yuklama. Yordamchi so‘z turkumlari asosan, gaplarni, so‘z birikmalarni bir biriga teng yoki tobe bog‘lashga, ularning ma’nosiga qo‘sishma ma’no yuklashga xizmat qiladi. Ular shevalarda, badiiy asarlarda, folklor janrlarda o‘ziga xos ifodalanadi. Badiiy asarlarda qo‘llanilib dialektizmni hosil qiladi. Ba’zi o‘rinlarda -ku yuklamasi -u bo‘lib qo‘l lanadi, uni bir necha misollar orqali fikrimizni dalillab o‘tamiz. 1

Til birliklarining, xususan so‘z, ba’zan so‘z birikmasining qaysi o‘rinda takrorlanib kelishiga ko‘ra takrorning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, umumiy holda ular o‘ttizga yaqinni tashkil qiladi. Ilmiy adabiyotlarda takrorning alliteratsiya, anafora, epifora, rifma (qofiya), assonans, konsonans, tavtologiya kabi turli xil ko‘rinishlari farqlanadi. Shunga ko‘ra, she’r yoki bandning boshida kelgan so‘z, so‘z birikmasi yoki gap har bir misra yoki band boshida takrorlanib kelishi anaforani tashkil qiladi. O‘rinli takrorlari, beqiyos jozibador ohangli misralari bilan adabiyot olamida alohida o‘rin tutgan shoira Halima Ahmedova she’rlarida ham takrorning ushbu turi –

1 Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: 1994

Ilmiy elektron jurnali

anaforadan ko‘p bor foydalangan. Shubhasiz, bu orqali she’r jozibador ohang va bo‘yoq bilan ta’minlangan. Shoira qo‘llagan anaforalar soddaligi bilan she’rxonning ko‘z o‘ngida jonlanayotgan manzarani yanada ravshan va aniq ko‘rinishda namoyon etadi: Bunda o‘zin yoqqan qirq olti bahor Bu esa yodgordir qaysi g‘animdan Ko‘zimga tik qarab o‘sayotgan xor Bunda sukonat bor... Bunda bor umid. Hali jon berolmay qiynalayotgan Bunda bor kuzakdan ortgan maysalar Nenidir aytolmay qiynalayotgan. Bunda nur va zulmat bahsi qizigan Kun bermay yashaydi hech bir-biriga... 2

Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, grammatika to‘g‘ri gapirish va yozishni o‘rgatadigan yirik bo‘lim hisoblanib, morfologiya va sintaksis singari qismlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Morfologiya so‘z turkumlarini o‘rganadigan bo‘limdir. So‘z turkumlari o‘z ichiga mustaqil so‘z turkumlari, yordamchi so‘z turkumlari va alohida olingan guruh so‘zlarini oladi. Hozir biz shulardan biri bo‘lgan yordamchi so‘z turkumlarini o‘rganib chiqamiz. Yordamchi so‘z turkumlari deb, yakka holda ma’no anglatmaydigan, gap bo‘lagi vazifasida qo‘llanmaydigan, grammatik ma’nolarini ifodalashga ishlatiladigan so‘zlarga aytildi. Ular mustaqil so‘zlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, so‘zga va gapning mazmuniga turli qo‘sishma ma’nolar qo‘sish maqsadida foydalанилди. Yordamchi so‘zlar turkumiga ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklama kiradi. Dastlab ko‘makchi va uning turlari bilan yaxshilab tanishib olamiz. Ko‘makchi bu- ot va otlashgan so‘zlardan so‘ng kelib, ularni boshqa so‘zlarga tobelanish orqali bog‘laydigan yordamchi so‘zlardir. Masalan: Qo‘li bilan yozdi. Bu yerda ko‘makchi "bilan" so‘zi bo‘lib, u o‘zidan oldin kelgan "qo‘li" so‘ziga bog‘lanib kelgan, ikki so‘z ya‘ni "qo‘li bilan" birikmasi bir xil so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasini keladi. Ko‘makchilar sof va vazifadosh singari turlarga ajraladi:

1. Sof ko‘makchilar- lug‘aviy ma’nolarini butunlay yo‘qotib, vazifa jihatidan kelishik qo‘sishchalariga yaqin turadi. Ular oz bo‘lganligi tufayli yodlab olish qiyin emas. Bilan, uchun, kabi, sari, singari, tufayli, sayin, uzra, qadar, yanglig‘, orqali, haqida ko‘makchilar sof ko‘makchilar hisoblanadi. Sof ko‘makchilarning yana bir o‘ziga xos jihat shundan iboratki, ular urg‘u olmaydi, urg‘u ko‘makchidan oldingi so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi.
2. Vazifadosh ko‘makchilar- atash ma’nosini butunlay yo‘qotib, ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan, asli ot, sifat, fe’l, ravish kabi mustaqil so‘zlarga tegishli bo‘lgan so‘zlar hisoblanadi. Hozir ularni ham ko‘makchi, ham mustaqil so‘z sifatida foydalananib ma’nolarini anglashga harakat qilamiz. Ot turkumiga oid bo‘lgan ko‘makchilar: old, o’rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o’rin, qosh, yoqa, ro’para, tomon, tashqari, bo‘yi, chamasi, holda, yo’sinda. Avval ko‘makchi sifatida misol keltiramiz: Kechagi o’tilgan ko‘makchi mavzusi ustida gap ketyapdi. Bu yerda rostdan ham ko‘makchining ustki qismida gap ketayotgani yo‘q, ustida so‘zi lug‘aviy ma’nosini yo‘qotgan holda qo‘llangan. Endi mustaqil so‘z ko‘rinishida qo‘llaymiz: Stolning ustida qalam turibdi. Nimaning ustida qalam turibdi? Stolning ustida. Ko‘rinib turganidek, ikkinchi gapimizda ustida so‘zi so‘roqqa javob bo‘lyapdi ya‘ni lug‘avi ma’no anglatayapdi. Ravish turkumiga oid ko‘makchilarga oldin, avval, so‘ng, keyin, burun, ilgari, beri, buyon, asosan, bionan kabi so‘zlar kiradi. Gapirmasingdan avval yaxshilab o‘yla. Avval o‘yla, keyin so‘yla. Birinchi gapda ko‘makchi kelishik qo‘sishchasini olgan so‘zdan keyin qo‘llanib, bitga so‘roqqa javob bo‘lmoqda. Keyingi gapda esa alohida ma’no anglatmoqda. Fe’l turkumiga oid ko‘makchilar: deya, deb, atab, qaramay, qarata, qaraganda, degan. Guruhimizga Muxlisa degan qiz keldi. Oyim menga:"Sayoq yurgan tayoq yeydi"-, degan edi. Sifat turkumiga oid

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ko'makchilar: sababli, qarshi, chog'li, doir, muvofiq, o'zga. Ustozimizning so'zlariga mjvofiq dars o'tildi. Bu kitob bilan, Diyora aytgan kitob birbiriga muvofiq kelmayapdi. Ko'makchilarning turlari shu bilan yakunlanadi. Endi esa ko'makchilar va qo'shimchalar ma'nodoshligiga to'xtalamiz.

Halima Ahmedova she'riyati yordamchi so'zlarning qo'llanilishi:

Goho bo'm-bo'sh ko'nglim oralab
Sudraladi kuzak shamoli.
Sarg'aygan gul yaproklariga
Dilim chizar ishqning xayolin.

To'kilmoqda tomchilab umr
Malaklarning gul kosasidan.
Men tug'ilgan edim-**ku** bir kun
Yomgirlarning sirli sasidan.

Daraxt edim, egilmas daraxt,
O'sardim nur emganim **sayin**.
Yashil dunyo sog'inchilarida
Bir kun xazon bo'lmosg'im tayin.

Shoir edim, bebosh yuragim, -
Talashardi ruhim, samo, yer.
Men sendayin paytimda, o'g'lim,
Dalalarga o'rgatardim she'r...

O'g'lim, sendan boshqa kimim bor,
Ko'zlarinda oqadi dilim.
She'rday Majnun kunlarim haqqi,
Sen dunyoni shoir qil, o'g'lim!

Xulosa o'mida shuni aytish o'rinniki, o'n yillar davomida tadqiq qilinmagan, joiz bo'lsa nazardan chetda qoldirilgan yordamchi so'z turkumlarini ilmiy faktidir. Yuqorida ko'rib o'tgan bir qancha misollarimiz va qisqa tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, namuna tariqasida keltirilgan holatlar hammasi emas va izlanish jarayonida yana boshqa holatlarga ham duch kelish mumkin. Bu hodisani esa yanada chuqurroq o'rganish tadqiq qilish va o'zbek tili grammatikasining amaliy asosi bor nazariy bilimlari qatoriga kiritish tilshunoslarimiz qilishi kerak bo'lgan muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anorbekova A., Mirzayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Akademik litseylar uchun ma'ruzalar matni. Toshkent.: Noshir. 2012. 316 b.
2. Hamroyev M., Muhamedova D. va b. Ona tili. Toshkent.: Iqtidod -moliya. 2007. 242 b.
3. Mengliyev M. Hozirgi o'zbek tili. Toshkent.: Tafakkur bo'stoni. 2020
4. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: 1994

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

5. Ahmedova H. Umid soyasi – T.: Nihol, 2008